

JASMIN DARZNIKNING «QAFASDAGI QUSH NIDOSI» ROMANIDA FEMINISTIK NAZARIYA VA GENDER DISKURSI: NAZARIY ASOSLAR VA BADIY IFODALANISH MEXANIZMLARI

Aminova Nilufar Bahriddinovna,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

nilufar0906@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jasmin Darznikning «Qafasdagi qush nidosi» romani feministik nazariya va gender diskursi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Tadqiqotda Eleyn Shouolterning metodologiyasi, Gayatri Chakravorti Spivakning subaltern konsepsiyasi va Simona de Bovuarining «ikkinchi jins» nazariyasi asosiy tahlil vositasi sifatida qo'llaniladi. «Qafas» ramziy tizimining badiiy funksiyasi, patriarxal tuzum mexanizmlarining matn ichidagi ko'rinishlari va bosh qahramonning mazlumlikdan ijodiy erkinlikka bosib o'tgan transformatsiya yo'li maqolaning markaziy muammolari sifatida belgilanadi.

Kalit so'zlar: feministik adabiyotshunoslik, gender diskursi, subaltern nazariyasi, patriarxal tuzum, ayol transformatsiyasi, «ikkinchi jins», «qafas» timsoli, Forug' Farrohzod, ijodiy ozodlik.

Аннотация. В данной статье роман Джасмин Дарзник «Песнь пленной птицы» рассматривается с позиций феминистской теории и гендерного дискурса. В исследовании применяются гинокритическая методология Элейн Шоултер, концепция субалтерна Гаятри Чакраворти Спивак и теория «второго пола» Симоны де Бовуар. Символическая система «клетки», механизмы патриархального устройства в тексте и путь трансформации главной героини от угнетения к творческой свободе определены как центральные проблемы статьи.

Ключевые слова: феминистское литературоведение, гендерный дискурс, теория субалтерна, патриархальный строй, трансформация женщины, «второй пол», символ «клетки», Фору́г Фаррохзад, творческая свобода.

Abstract. This article examines Jasmin Darznik's novel *Song of a Captive Bird* through the lens of feminist theory and gender discourse. The study applies Elaine Showalter's gynocritical methodology, Gayatri Chakravorty Spivak's subaltern concept, and Simone de Beauvoir's "second sex" theory as primary analytical tools. The symbolic system of the "cage", the mechanisms of patriarchal order within the text, and the protagonist's transformative journey from oppression to creative freedom are defined as the central concerns of the article.

Keywords: feminist literary criticism, gender discourse, subaltern theory, patriarchal system, female transformation, "second sex", cage symbol, Forough Farrokhzad, creative freedom.

Kirish. Feminist adabiyotshunoslik XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi va zamonaviy adabiyot nazariyasida muhim o'rin egalladi. Bu yo'nalish avvalo ayol ijodkorlarining asarlarini erkak me'yorlari orqali emas, balki o'z ichki mantiq va estetik mezonlari asosida o'rganishni talab qiladi. Feminist adabiyotshunoslikning asosiy masalalaridan biri – patriarxal jamiyatda ayol ovozinig qanday bostirilishi va badiiy matn orqali bu ovozning qanday tiklanishi jarayonini kuzatishdir. Aynan shu savol Jasmin Darznikning «Qafasdagi qush nidosi» romani talqinida markaziy ahamiyat kasb etadi.

Amerikalik yozuvchi Jasmin Darznik tomonidan 2018-yilda nashr etilgan mazkur roman haqiqiy tarixiy shaxs – Eron shoirasi va kinorejissyori Forug' Farrohzod (1935–1967) hayotiga asoslangan. Asarda individual qahramon taqdiri orqali XX asr Eron

jamiyatidagi gender munosabatlari, patriarxal tizimning ayol hayotiga ta'siri va ijodiy ozodlik izlash jarayoni keng badiiy talqin etiladi.. «Qafasdagi qush nidosi» romanining gender diskursi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Feminist adabiyotshunoslikning shakllanishida Simona de Bovuarning (Simone de Beauvoir, 1908–1986) hissasi beqiyosdir. Uning 1949 yilda nashr etilgan «Ikkinchi jins» (Le Deuxième Sexe) asari feminist tafakkurning falsafiy poydevori sifatida qabul qilinadi. Bovuar fikricha, ayol tabiatan «ikkinchi» emas – u jamiyat tomonidan «ikkinchi» sifatida quriladi: «Ayol bo'lib tug'ilmaydilar, ayolga aylantiriladi» (On ne naît pas femme, on le devient). Bu g'oya gender tabiiy emas, balki ijtimoiy-madaniy konstruksiya ekanligini birinchi marta nazariy jihatdan asoslab berdi va keyingi barcha feministik tadqiqotlarga metodologik asos yaratdi.

Eleyn Shouolter (Elaine Showalter, 1941) feminist adabiy tanqidni mustaqil ilmiy metodologiyaga aylantirdi. Uning 1979-yildagi «Toward a Feminist Poetics» maqolasida taklif etilgan ginokritika yondashuvi ayol ijodini erkak tajribasi asosida emas, balki ayolning o'z tajribasi, tili va madaniy xotirasidan kelib chiqib o'rganishni taqozo etadi. Shouolter ayol yozuvchilarining ijodiy rivojlanishini uch bosqich orqali tavsiflaydi: feminin (feminine), feministik (feminist) va ayol (female) bosqichlari. Birinchi bosqichda ayol ijodkor jamiyat belgilagan rolga moslashishga harakat qiladi; ikkinchi bosqichda tizimga qarshi chiqishni boshlaydi; uchinchi bosqichda esa o'z mustaqil badiiy ovozini topadi. Bu model ayol obrazining badiiy evolyutsiyasini kuzatishda kuchli tahlil vositasi bo'lib xizmat qiladi. Gayatri Chakravorti Spivakning (Gayatri Chakravorty Spivak, 1942) 1988-yildagi mashhur «Subaltern gapira oladimi?» (Can the Subaltern Speak?) maqolasi postkolonial feminist tanqidning asosiy matniga aylandi. Spivak fikricha, patriarxal va mustamlakachi tuzumlar ikki tomonlama bosim o'tkazib, ayolni nutq subyektidan obyektga aylantirib qo'yadi. Ayol nafaqat madaniy, balki epistemik jihatdan ham marjinalashtiriladi – uning bilimi, tajribasi va ovozi tizim tomonidan e'tirof etilmaydi. Shu sababli subaltern ayolning «gapirishi», ya'ni o'z ovozini ijtimoiy maydonga olib chiqishi alohida kurash va estetik akt sifatida namoyon bo'ladi. Spivakning bu g'oyasi Forug' obrazini tahlil etishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi: chunki roman aynan shu subalterndan ovozga o'tish jarayonini badiiy tarzda aks ettiradi.

Judith Butler (Judith Butler, 1956) o'zining «Gender muammosi» (Gender Trouble, 1990) asarida gender tushunchasini performativlik nazariyasi orqali qayta talqin etdi. Butlerga ko'ra, gender tabiiy holat emas, balki takroriy harakatlar, ijtimoiy me'yorlar va diskursiv amallar orqali «ijro etiladigan» (performed) identifikatsiya tizimi. Bu nazariya patriarxal jamiyatda ayol tomonidan bajarilishi kutilgan rollar mexanizmini tushuntirishda asqotadi. Roman qahramoni Forug' o'z hayoti davomida aynan mana shu «ijro etiladigan» gender normalariga qarshi chiqib, o'z identifikatsiyasini izlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda «Song of a Captive Bird» romani feministik adabiyotshunoslik doirasida kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, unda

Elaine Showalterning ginokritik metodologiyasi, Gayatri Chakravorty Spivakning subaltern nazariyasi hamda Simone de Beauvoirning «ikkinchi jins» konsepsiyasi integrativ tarzda qoʻllanildi. Tahlil jarayonida matnning ramziy tizimi, gender diskursi va qahramon transformatsiyasi qiyosiy-tipologik hamda interpretativ tahlil usullari orqali oʻrganilib, patriarxal tuzum mexanizmlarining badiiy ifodalanish shakllari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Romanda asosiy ramziy tizimni «qafas» timsoli tashkil etadi. Muallif bu obrazni oddiy metafora sifatida emas, balki patriarxal tuzumning oilaviy, ijtimoiy va institutsional namoyon boʻlishini birlashtiruvchi koʻp qatlamli poetik konstruktsiya sifatida qoʻllaydi. Showalter nazariyasi nuqtai nazaridan bu qafaslar feminin bosqichning badiiy ifodasi – qahramon hali jamiyat belgilagan andazaga moslashishga urinayotgan davr.

Birinchi qafas – ota uyi – Bovuarning «ikkinchi jins» kontsepsiyasini badiiy jihatdan tasvirlab beradi. Ota uyida qizlar uchun koʻcha man etilgan, erkinlik faqat erkak farzandlarga tegishli imtiyoz sifatida koʻrsatiladi. Bu holat gender tengsizligining dastlabki ijtimoiy instituti – oila tomonidan qurilishini ochib beradi. Roman qahramoni ota uyi chegaralaridan tashqaridagi dunyoga intilishi bilan Bovuar taʼriflagan «immanentlik» (immanence) – ayolga yuklatilgan muayyan chegaralar ichida qolish majburiyati – va «transcendence» – bu chegaralardan chiqish istagi – oʻrtasidagi dialektikani jismoniy tarzda his qiladi.

Ikkinchi qafas – er uyi – «ichkilashtirilgan patriarxiya» mexanizmini koʻrsatadi. Bu yerda nazorat bevosita erkak tomonidan emas, balki qaynonasi orqali amalga oshiriladi. Feminist nazariyada bu fenomen ayolning patriarxal qadriyatlarni keyingi avlodga yetkazuvchi vositachi sifatida funktsiya bajarishini anglatadi. Butlerning performativlik nazariyasi nuqtai nazaridan esa, qaynonasi kundalik marosimlar, doimiy kuzatuv va meʼyoriy talablar orqali «toʻgʻri ayol» obrazini ijro ettiradi – bu esa patriarxal gender normalalarining oʻz-oʻzidan takrorlanish mexanizmidir.

Uchinchi qafas – ruhiy kasallar shifoxonasi – Spivakning subaltern nazariyasida ishlab chiqilgan epistemik zoʻravonlik tushunchasini badiiy jihatdan aks ettiradi. Forugʻ ruhiy kasallik tufayli emas, balki jamiyat andazalariga mos kelmaydigan xulq-atvor – ijod qilish, qarshilik koʻrsatish, oʻz istaklarini ifodalash – sababli shifoxonaga joylashtiriladi. Bu aqldan ozganlik stereotipi orqali ayol ovozini diskreditatsiya qilishning klassik patriarxal usuli: ovoz chiqarayotgan ayolni «jinni» deb eʼlon qilib, uning soʻzlarini haqiqatsizlashtirish. Shu tariqa tizim subaltern ayolning gapirish huquqini eng shafqatsiz tarzda tortib oladi. Romanda bosh qahramonning transformatsiya yoʻli Showalterning uch bosqichli modeli bilan aniq koʻrsatadi. Feminin bosqichda Forugʻ ijtimoiy andazaga moslashishga urinadi: yaxshi qiz, itoatkor kelin va mehribon ona boʻlishga harakat qiladi. Bu bosqichda uning ichki dunyosi va tashqi niqobi oʻrtasidagi ziddiyat chuqurlashib boradi. Feminin bosqichning tugash nuqtasi sifatida romanda sheʼrlarini matras ostiga yashirish epizodi alohida ahamiyat kasb etadi: ijod allaqachon boshlangan, ammo hali

yashirinlik va bosim ostida davom etayotgandi. Feministik bosqich qahramon tizimga ochiq qarshilik ko'rsata boshlagan nuqtadan boshlanadi. Bu bosqichda Forug' qaynonasining talablarini rad etadi, muharrirning gender asosidagi munosabatiga e'tiroz bildiradi, shifoxona sharoitida ham ruhiy mustaqilligini saqlab qolishga urinadi. Spivakning subaltern nazariyasi nuqtai nazaridan bu bosqich subalterndan nutq sub'ektiga o'tishning boshlanishi sifatida tavsiflanishi mumkin: qahramon o'z tajribasini ifodalashga, «gapirish»ga urinmoqda.

Ayol bosqichi she'riyat va kino san'ati orqali amalga oshadi. She'riyatda Forug' nafaqat o'z iztiroblarini emas, balki ijtimoiy jihatdan bostirilib kelayotgan barcha ayollar ovozi ifodalaydi. Yosh o'quvchi ayollardan kelgan maktablardagi «Siz ayta olmaganlarimni aytdingiz» iborasi bu ijtimoiy vakillik funksiyasini aniq ko'rsatadi. «The House Is Black» hujjatli filmida esa Forug' jamiyatning eng chekka qatlamidagi insonlar – moxov kasallari – hayotini badiiy jihatdan ko'rsatadi: bu endi shaxsiy ovozdan ijtimoiy-siyosiy ovozga to'liq o'tish hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Jasmin Darznikning «Qafasdagi qush nidosi» romani feministik nazariyalar va gender diskursi nuqtai nazaridan boy va ko'p qatlamli tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bovuarning «ikkinchi jins» kontsepsiyasi, Shouolterning ginokritika metodologiyasi, Spivakning subaltern nazariyasi va Butlarning performativlik tushunchasi birgalikda qo'llanilganda, roman matni yangi tahlil qatlamlarini ochib beradi. «Qafas» timsoli yagona metafora emas – u patriarxal tuzumning oilaviy (ota uyi), ijtimoiy (er uyi) va institutsional (shifoxona) namoyon bo'lishini birlashtiruvchi semiotik tizim sifatida matn boyligini ta'minlaydi. Bosh qahramonning Shouolter modeli bo'yicha feminin bosqichdan feministik, so'ngra ayol bosqichiga o'tishi ijodiy transformatsiyaning ketma-ket badiiy ifodalanishi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi darajali ayol obrazlari esa patriarxal tizimga bo'ysunish, moslashish va vositachilik qilishning turli strategiyalarini ko'rsatib, bosh qahramonning o'z yo'lini yolg'iz bosib o'tishini yanada ta'kidlaydi.

Eng muhim xulosa shuki, Forug' obrazi individual ozodlik izlashdan ijtimoiy mavqeyiga erishgan ijodkor ayol timsoliga aylanadi. Uning she'riyati va kinoijodi subalterndan ovozga o'tishning badiiy modeli, patriarxal tizim ichida yaratilgan estetik qarshilik timsoli sifatida adabiyot tarixiga kiradi. Shu ma'noda roman nafaqat individual biografiya, balki gender munosabatlari tarixi va feministik ong-u e'tirozning badiiy hujjati sifatida tavsiflanishi mumkin. Ushbu tadqiqot o'zbek adabiyotshunosligida xorijiy ayol prozasini feministik metodologiya asosida o'rganish uchun amaliy namuna bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Beauvoir S. de. The Second Sex. – New York: Vintage Books, 1989. – 800 p.
2. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 1990. – 272 p.
3. Cixous H. The Laugh of the Medusa // Signs: Journal of Women in Culture and Society. – 1976. – Vol. 1. – № 4. – P. 875–893.

4. Darznik J. Song of a Captive Bird. – New York: Ballantine Books, 2018. – 432 p.
5. Gilbert S. M., Gubar S. The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination. – New Haven: Yale University Press, 1979. – 752 p.
6. Milani F. Veils and Words: The Emerging Voices of Iranian Women Writers. – Syracuse: Syracuse University Press, 1992. – 279 p.
7. Mohanty Ch. T. Under Western Eyes: Feminist Scholarship and Colonial Discourses // Feminist Review. – 1988. – № 30. – P. 61–88.
8. Rich A. Of Woman Born: Motherhood as Experience and Institution. – New York: W. W. Norton, 1976. – 318 p.
9. Showalter E. A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. – Princeton: Princeton University Press, 1977. – 378 p.
10. Showalter E. Toward a Feminist Poetics // Women's Writing and Writing about Women. – London: Croom Helm, 1979. – P. 22–41.
11. Spivak G. Ch. Can the Subaltern Speak? // Marxism and the Interpretation of Culture / Ed. C. Nelson, L. Grossberg. – Urbana: University of Illinois Press, 1988. – P. 271–313.
12. Tong R. Feminist Thought: A More Comprehensive Introduction. 4th ed. – Boulder: Westview Press, 2014. – 352 p.
13. Wollstonecraft M. A Vindication of the Rights of Woman. – London: J. Johnson, 1792. – 452 p.
14. Yarshater E. (Ed.) Persian Literature. – Albany: SUNY Press, 1988. – 599 p.
15. Karimov N. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.

